

YOSHLARDA MILLIY MAFKURAIY IMMUNITETNING SHAKLLANTIRISH DAVR TALABI

Obidov Abdulboriy Doniyor o'g'li

O'zbekiston milliy universiteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Bugungi mediamanbalar kundan-kunga rivojlanib ulardan foydalanish imkoniyati kengayib, foydalanuvchilar soni ortib borishi yosh avlodni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, ularda mediasavodxonlik madaniyatini yanada oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolada yoshlarda mafkuraviy immunitetni oshirishda oila, mahalla, ta'lim muassasalari va keng jamoatchilikning roli haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: milliy mafkura, mafkuraviy immunitet, mediasavodxonlik, oila, ta'lim muassasa, ma'naviy tahdid.

Istiqlol sharofati bilan milliy qadriyatlar, madaniyat va an'analarni, ma'naviyatni tiklab, odamlarimiz qalbida milliy g'urur va iftixorni, vatanparvarlik tuyg'ularini kamol toptirishga keng zamin yaratilmoqda. Farzandlarimizni har jihatdan yetuk va barkamol insonlar qilib voyaga etkazish, ularga kelajagimiz egalari deb qarash xalq kelajagiga bevosita daxldor masala sifatida e'tibor qaratilishi bugungi kundagi eng dolzarb masaladir.

O'tmishning buyuk donishmand mutafakkirlari o'z davridagi ijtimoiy tuzumning siyosiy-iqtisodiy va m'naviy asoslari qanday bo'lishidan qat'iy nazar bola tarbiyasi masalasiga birinchi darajali ish deb qaraganlar. Shundan ma'lumki, istalgan bir tuzumni nasl-avlodsiz yoki uning tarbiyasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Oila farzand tarbiyasida bosh mas'ul. Xalqimizda “qush uyida ko'rganini qiladi” – degan ibora bor. Darhaqiqat, bolaning yurish-turishi, odobi, o'zini tutishi,

madaniyatliligi, samimiyligi, rostgo'yligi kabi barcha fazilatlari oilada shakllantiriladi. Bolaning nutqi, muomala madaniyati, e'tiqodi, milliy odob-axloq normalariga amal qilishi qabi jixatlarining shakllanishida ham oila muhiti juda katta rol o'ynaydi. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida u yashab turgan jamiyatning, ana shu kishilar jamiyatida amal qilinadigan ilmiy va diniy dunyoqarashiga, milliy urf-odat va an'analariga bevosita bog'liq holda kechadi.

Oilada bola tarbiyasida har bir daqiqa, har bir jarayon va har qanday holat hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bola insonlar bilan muloqotga kirishishda, o'zini tutishida, odob-ahloq normalariga amal qilishda, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi milliy xarakterdagi fazilatlarni egallashida oilaviy tarbiyaning o'rni va ahamiyaini o'ziga yarashadir. Xolbuki, bolaning o'zbekona salom-alikni, so'zlashish odobini, kattalarning nasixatiga amal qilishni o'rganishida, milliy an'ana va qadriyatlarimiz ruhida kamol topishida oilaviy hamjihatlik va bola tarbiyasiga e'tibor va Vatan taqdiriga dahldorlikni his qilib yashayotgan har bir insonni muqaddas burchidir.

Ayniqsa bugungidek ommaviy madaniyatning huruji ortib borayotgan globallashuv jarayonida farzandalarimizni millatimizga zid bo'lgan madaniyat ta'siridan himoya qilish, ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish, ularni kasb-hunarga jalb qilish va kimlar bilan do'stlashayotganlari internet saytlaridan qanday ma'lumotlarni olayotganiga qiziqish, ta'llim muassasalari va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik ishlarini oshirish masalalari bugungi kunda eng dalzarb vazifalardan biridir. Ko'p hollarda ota-onalar tirikchilik tashvishlari bilan bo'lib farzandalarining tarbiyasi uchun vaqt ajrata olmaydilar. Buning natijasida esa yoshlarimiz o'zlarini qiziqtirgan savollarga javobni va tarbiyani turli internet sahifalaridan va boshqa ommaviy axborot vositalaridan olmoqda. Bunday vaziyatlar natijasida farzandalarimiz tarbiyasida ahloqsizlik, beodoblik, andishasizlik kabi salbiy sifatlarning vujudga kelishi va ohir-oqibat ota-onalarning o'zi bunday holatlardan aziyat chekib qolishi kabi holatlarning guvohi bo'lyapmiz. Evropa va boshqa g'arb mamlakatlari tarbiyasida erkin fikrlash va teng huquqlilik tushunchalari zamiri ostida oilaviy va boshqa masalalarda birinchi

o‘ringa shaxsiy manfaatni qo‘yish, oilaning taqdiridan ko‘ra insonlar o‘zining shaxsiy hayotini farovonligini o‘ylab ish ko‘rishi bizga ma‘lum. Sharq xalqlarida esa shaxsiy manfaatdan ko‘ra oilaning sha’nini ustun qo‘yish, erkin fikrlash bilan bir qatorda o‘zgalar fikrini ham hurmat qilish va tinglay bilish madaniyati, qiz bolaning sharm-hayosi, yigitlarning bir so‘zliligi va qatiyatlilik kabi sifatlarlar xalqning qon-qoniga singib ketgan fazilatlar sanaladi. Afsuski bugungi kun yoshlarining tarbiyasida esa bunday fazilatlarni topish mushkul masala bo‘lib qoldi. Bugungi yoshlarimizning kiyinish madaniyati va muomala madaniyatida, o‘zini tutishida evropaga taqlidni ko‘rishimiz mumkin. Bu esa albatta ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri va oilada bola tarbiyasi va milliy qadriyatlarimizga bee'tiborlik bilan qaralayotganligining oqibatidir. Oilani jamiyatning bosh bo‘g‘ini deb hisoblanishining asosiy sababi u kelajak avlodni ya’ni jamiyatning va mamlakatning ertangi kunining yaratuvchisidir. Shunday ekan, oilada bola tarbiyasiga qat’iy e’tibor berish, farzandlarimizni milliy mentalitetimizga xos bo‘lgan odob-ahloq normalari asosida voyaga yetkazish bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb va muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.A. Muladjanova AXBOROT-PSIXOLOGIK URUSH DAVRIDA MEDIAISTE’MOLI MADANIYATIINI SHAKLLANTIRISH. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4) 672-374
2. Mullajonova, M. (2024). AXBOROTNI INSON HAYOTIGA TA’SIR O’TKAZISH OMILLARI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4), 678-679.
3. Abidjanovna, M. G. (2022). RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING O'ZIGA XOS JIHATLARI. PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION, 1(8).